

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.A.Ganiyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi	6
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida	10
S.N.Fazildinova	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works	14
Sh.T.Axmadjonova	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini	17
D.S.Usmonova	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language	20
D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges	24
N.R.Maxmudova	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida	28
M.Saminjonov	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar	31
I.M.Jo'rayev	
Qadimiy qadriyatlar	37
D.R.Ubaydullayeva	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlarini qiyosiy tadqiqi	41
N.Q.Adamboeva	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari	49
Z.M.Dadahonova	
Components of knowledge control	53
L.Teshebayeva	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar	56
Ш.М.Артикова	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма	60
M.M.Nurmatova	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida	66
S.I.Quziyev	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari	70
T.Z.Ismonova	
Problems and solutions of grammar translation method	76
N.A.Komilova	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari	80
D.X.Madazizova	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence	83
S.A.Yusupova	
Morphemic units expressing honour in different system languages	86
N.Sidikova	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri	91
Sh.X.Nuritdinova	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi	94
N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva	
Semantic analysis of english phrasal verbs	98
B.A.Mukhtorova	
The "Concept" in linguistics	102
R.A.Ortiqov	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili	106
Sh.O.Abdiloyev	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi	110

O‘ZBEK VA INGLIZ ERTAKLARIDA MIFONIM VA SPELLONIMLAR
MYTHONYM AND SPELLONYM IN UZBEKI AND ENGLISH FAIRY TALES
МИТОНИМ И СПЕЛЛОНИМ В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ СКАЗКАХ

Teshebayeva Lolaxon Ravshanovna¹

¹Farg‘ona davlat universiteti tabiiy yo‘nalishlar bo‘yicha chet tillari kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz ertaklarida qo‘llangan mifonim va spellonimlar ularning kelib chiqishi va etimologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье анализируются мифонимы и спеллонимы, используемые в узбекских и английских сказках, их происхождение и этимологическая характеристика.

Abstract

This article analyzes mythonyms and spellonyms used in Uzbek and English fairy tales, their origin and etymological characteristics.

Kalit so‘zlar: *onomastika, mifonim, spellonim, teonim, demononim, mifoantroponim, mifotopim, mifozoonim, mifofitonim.*

Ключевые слова: *ономастика, мифоним, спеллоним, теоним, демононим, мифоантропоним, мифопиним, мифозооним, мифофитоним.*

Key words: *onomastics, mythonym, spellonym, theonym, demononym, mythoanthroponym, mythoponym, mythozoonym, mythophytonym.*

KIRISH

Turkiy xalqlar tarixini otsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunonchi, ota-bobolarimiz ilohiy mo‘jiza sanalmish bu hayvonning inson hayotidagi ahamiyatini birinchilardan bo‘lib juda yaxshi bilgan va uni ardoqlash, tarbiyalash, undan foydalanish borasida boshqa ko‘plab xalqlarga o‘rnak bo‘lgan xalqdir. Bu xususiyat nafaqat bizning tarixchilarimiz, balki g‘arb olimlari tomonidan ham e‘tirof etilgan. Masalan, U.V.Shmidt bu borada olib borgan tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: “O‘rta Osiyoda yerlashib olgan va yovvoyi hayvonlarni qo‘lga o‘rgatishni boshlagan ilk qavm turkiy qavm bo‘lgan. Ot birinchi marta turkiylar tomonidan qo‘lga o‘rgatilgan va ular otga mingan birinchi insonlar edilar”. Ajdodlarimiz otni dunyoga tanitgan, bu bilan insoniyat tarixida muhim burilish va o‘zgarish yasagan millatdir [1,77-78]. Shu sababdan xalq ertaklari matnlarida ham ot obrazi ko‘p uchraydi.

Mifonimlar atoqli otlar guruhiga kirib, ular noreal, ya‘ni, to‘qima obrazlar nomlari hisoblanadi. Keng ma‘noda esa mifonimlar mif, afsona va ertaklarda qo‘llaniladigan obraz yoki joylarning to‘qima nomidir. Mifonim so‘zi yunon tilidan kirib kelgan bo‘lib, mythos – afsona, ertak; onyma – ism, nom ma‘nolarini ifodalaydi, ya‘ni, har qanday toifadagi to‘qima obrazlar nomi deb tushuniladi. Shu jumladan, mifonimlar tarkibiga oliyanob yoki iblis sifatli personajlar, tabiiy hodisalar, mavhum tushunchalar, joy nomlari ham kiritiladi” [2, 8-9].

Spellonimlar – sehrgarlar, sehrlı qudratga ega bo‘lgan mavjudotlar nomlari ham ertaklarga xos onomastik birliklardan sanaladi. Chunki ertaklarni sehrlı, sehrlı kuchlarsiz, mo‘jizasiz, fantastik elementlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Spellonimlar sodda va qo‘shma spellonimlarga bo‘linadi. Sodda nomlar kanonik va kanonik bo‘lmagan nomlar, uydirma ismlar, umumiy otlar va taxalluslar bilan ifodalanadi. Qo‘shma spellonimlar ism va epitetni o‘z ichiga olgan iboralardan tashkil topadi – bu xususiyat odatda hissiy va estetik baholashni ifoda etadi [3, 65-69].

Spellonimlar orasida keng tarqalganlaridan biri witch – jodugar obrazidir.

Witch – jodugar nomi (“ayol sehrgar”) qadimgi ingliz tilida ikkita shaklga ega edi: ayol shakli *wicce* va erkak shakli *wicca*. R.C.Barnhart tomonidan tahrir qilingan etimologik lug‘atga ko‘ra, ikkala shakl ham *wiccian* (“sehrlı marosimlarni bajarish”) fe‘lining o‘zagidan olingan bo‘lib, qadimgi inglizcha *wigle* (“bashorat”), *wiglian* (“bashorat”) so‘zlari bilan birlashadi. O‘xshash ma‘noga ega

soʻzlar bir nechta german tillarida uchraydi: qadimgi frizcha *wigila* (“jodugarlik”), oʻrta past va oʻrta oliy nemis *wicken/wikken* (“bashorat qilish; sehrlash”), qadimgi yuqori nemis *wih/wihi* (“muqaddas”), *Gothic weihs* (“muqaddas”) [4, 1240]. Demak, “witch” spellonimi etimologik jihatdan “bashorat qilish”, “sehrlash”, “jodugarlik” maʼnolarini anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mifonimlarga N.Podolskyaning “Onomastik terminlar lugʻati” “Mifonimlar – afsona, epos, ertak va dostonlardagi onomastikaning istalgan turiga tegishli boʻlgan atoqli otlar”, deya taʼrif berilgan.

V.Oshpekova va N.Solovyevlarning taʼrifiga koʻra esa “Mifonimlar mifologik nomlar boʻlib, odatda teonimlar – ertaklardagi xudolar nomlari; demononim – mifologik iblis qahramonlar nomlari; mifoantroponimlar – afsona va ertaklarda uchrovchi qahramonlar ismlari; mifotopinimlar – mifologik makon zonalari nomlari; mifozoonimlar – mifologik hayvonlar nomlari, mifofitonimlar – mifologik oʻsimliklar nomlari kabi guruhlariga ajratiladi” [5, 73-87].

Mifonimlarga D.Oʻrayeva va G.Nazarovalar tomonidan ham taʼrif berib oʻtilgan. Demak, mifonimlar keng maʼnoda har qanday toʻqima atoqli otni, tor maʼnoda toʻqima obrazlarni anglatuvchi atoqli otlar guruhidir.

Ertaklarda ham turli mifologik, yaʼni toʻqima obrazlar keng qoʻllanilishini kuzatamiz.

O.Plaxova “Мифологическая ономастика в английской народной сказке” nomli maqolasida ingliz ertaklarida uchraydigan mifonimlarni tahlil qilib, ularni bir necha guruhlariga boʻlib tasniflagan:

- 1) hobbit va goblinlar: *Hedley Kow, Koo, the Bogey-Beast, Bogie, Hobyah, Boggart, Brownie, the Cauld Lad of Hilton* kabi;
- 2) elflar va piksilar: *Scantlie Mab, Habe-trot, Elfin, Robin*;
- 3) gigantlar: *Blunderbore, Thunderdell, Galligantua, Cormoran, Giant Skillywidden, Grumbo*;
- 4) ajdarlar: *Knucker, Laidly Worm, Dragon, Lambton Worm*;
- 5) sarson-sargardonlar: *Jacky-my-Lantern, Will-o'-tha-Wyke*;
- 6) suv parilari: *Madgy Figgy*;
- 7) boshqa gʻayritabiiy mavjudotlar: *Banister Dolls, the Dead Hands, Crawling Horror, the Quick, Gabriel Ratchets* [6, 60].

Ingliz tilidagi ertaklarga xos eng keng tarqalgan mifologik obrazlardan biri gigantlar obrazi sanaladi. O.Plaxovaning tadqiqotlari natijalariga koʻra, ingliz milliy konseptosferasida gigantlar konsepti asosiy oʻrinlardan birini egallaydi. Jami 18 ta asosiy ingliz mifologik konseptosferaning 12,1%ini tashkil etadi [7, 14-21].

Spellonimlarga V.Oshpekova va N.Solovyovalar quyidagicha taʼrif berganlar: “Spellonimlar – ertakdagi uning syujetida bevosita ishtirok etuvchi, matn “chizmasini” yaratuvchi, ertak olami ichida harakatlanib, oʻzgarib turadigan qahramonlarning nomlari [5, 73-87].

V.Oshpekova va N.Solovyovalar “Динамика развития ономастического пространства британской и русской волшебной сказки” nomli maqolasida ingliz va rus ertaklarida uchrovchi spellonimlarni tahlil qilgan. Mualliflar ingliz tilidagi erkak sehrgarlarni ifodalovchi *charmer, conjurer (conjuror), enchanter, exorciser, exorcist, fortune-teller, genie, mage, magician, magus, master, medicine person (medicine man), miracle worker, necromancer, occultist, prophesier, prophet, shaman, shamanist, soothsayer, sorcerer, spellbinder, thaumaturge, thaumaturgist, theurgist, warlock, wizard, wonder-worker* [ibidem]; ayol sehrgarlarni ifodalovchi *crone, enchantress, gammer, hag, siren, sorceress, witch (wiccan)*; rus tilidagi mujskoy rodga oid *ведун, волхв, волшебник, ворожей, колдун, кудесник, маг, орудник, прорицатель, чарователь, чаровник, чародей, чернокнижник, чудесник, чудодей, чудотворец*; jenskiy rodga oid *ведьма, волшебница, кирка, колдуница, колдунья, кудесница, орудница, сирена, фея, церцея, чародейка, чудесница, чудодейка, чудотворница* spellonimlarini tahlil qilib, ularning etimologik va semantik xususiyatlarini yoritganlar va ikkala tilda ham spellonimlar donolik, bilim maʼnolarini aks ettiradi, degan xulosaga kelganlar [8, 26-31].

МУХОКАМА

Britaniya folklorida koʻp tarqalgan mifologik obrazlardan yana biri velikanlar – ulkan odamlar (giants) dir. Bunday odamlar butun dunyo ogʻzaki ijodida mifologik obraz sifatida mashhur boʻlib kelgan, ammo eng mashhur gigantlar Britaniya folkloridagi gigantlar obrazi hisoblanadi [2, 12].

Ingliz tilidagi “Jack the Giant Killer” – “Jek gigantlardan qutqaruvchi” ertagi aynan gigant obrazlarga bag‘ishlangan. Ushbu ertakda Jack – Jek Qirol Artur davrida yashagan mard yigit. U bir nechta gigantlar – devlarni o‘ldiradi. Jek birinchi devni Kornvol tog‘ida o‘ldiradi va u qishlog‘iga qaytgach, unga oqsoqollar qilich va belbog‘ sovg‘a qilishadi. Belbog‘ga esa tilla suvi bilan

*“Here’s the right valiant Cornish man
Who slew the giant Cormelian”*

deb yozilgan edi. Aynan shu yerdan Jek o‘ldirgan birinchi devning ismi *Cormelian* ekanligi kelib chiqadi. Bu paytgacha esa “giant” – gigant deb nomlangandi. Ushbu gigant – dev mashur gigantlardan biri, *Cormoran, Cormilan, Gormillan, Gourmaillon* deb ham nomlangan. Ayrim manbalarda *Cormelian* ayol dev, *Cormoranning* turmush o‘rtog‘i deb ham keltirilgan [10, 77].

Keyingi devning ismi – *Blunderbore*. U *Blunderboar, Thunderbore, Blunderbus, Blunderbuss* deb ham nomlangan [11, 37]. *Blunderbore* ismli dev “Jek va loviya poyasi” ertagida ham uchraydi.

Thunderdell – ikki boshli dev. *Thunderdel, Thunderel, Thundrel, Thunderdale, Thunderbore* shakllarida ham uchraydi. Ushbu gigant “Jek va loviya poyasi” ertagida ham uchraydi.

O‘zbek tilidagi ertaklarda ham gigantlar – devlar obrazi ancha mashhur. Ayrim ertaklarda ulkan mavjudotlarning dev mifonimi bilan atalganini uchratamiz:

Men yer yuzidagi podshoning qiziman. Tog‘ sayrida yurganimda meni devlar o‘g‘irlab, shu yerga keltirishgan. Mana bu kalla Serka botirning xizmatkori, yer osti boyligining egasi ekan. Meni Serka botir xotin qilib olmoqchi edi (“Kenja botir”).

Ko‘p hollarda devlarning ham ismi bor ekaniga guvoh bo‘lamiz. “Qiron aka” ertagida *Qiron dev*, “Qahramon” ertagida *Sanggi, Sakvon, Akvon* kabi devlar ismlari keltirilgan:

Sizlarni kim bandi qildi? –deb so‘rabdi Qahramon. Devlarning orasida Sanggi degan bir barvasta dev bor ekan, hamma devlar ichida eng zo‘ri o‘sha dev ekan. Sanggi dev:

–Bizni sening Sakvon degan bobong band etib, taslim qilib ketgan, –deb javob beribdi.

–Bu devning nomi Akvon. U juda zabardast, makkor va zolim bir dev. U bir kuni menga sovchi yuborib: “Qizi malika Zubayda Zulfiqorani menga bersin, unasa-unagani, unamasa xalqini qiraman, shahrini vayron qilaman, o‘zini o‘ldiraman, qizini asir olaman”, debdi (“Qahramon”).

“Quyosh yerining pahlavoni” ertagida devga laqab qo‘yilganini ham ko‘rishimiz mumkin:

Tongguli:

–Sizlarni ofatdan kim qutqargan bo‘lsa, meni ham zulmatdan o‘sha qutqardi. “Bukri dev”ni, odamxo‘r ajdahoni o‘ldirgan, sizlarni ofatdan qutqarib, baxtli hayot eshigini ochgan, o‘zlaringiz dostonlar to‘qib yurgan quyosh yerining pahlavoni – Rustam o‘tinchi shu bo‘ladi, – deb aytibdi (“Quyosh yerining pahlavoni”).

O‘zbek tiliga xos ertaklarda ham jodugar obrazi uchraydi. Ayrim ertaklarda jodugar so‘zi spellonim sifatida kelgan, ayrimlarida jodugarlarga ism ham qo‘yilgan:

Shu jodugar chiqib aytdi:

– Taqsir! Men chiqib shu dushmani qaytarsam, qizingizni o‘g‘lim Arshinboyga berasizmi? (“Orzijon bilan Qambarjon”)

Arzaqi degan bir jodugar bor emish. Uning “Qoraqaldirg‘och” nomli bir oti bor emish. (Bulbuligo‘yo)

Parilar obrazi ham ertaklarda keng tarqalgan oobrazlardandir. “Pari” so‘zi va obrazining etimologiyasi xususida E.Jumanov quyidagi qarashlarni bayon qilgan: “Avesto”dagi “payrika” – mifologik personaj nomi bo‘lib, genetik jihatdan pari obrazining arxaik ko‘rinishlaridan biri ekanligi mutaxassislar tomonidan yakdillik bilan e‘tirof etilgan... Masalan, V.Gerterning fikricha, “Avesto”dagi “payrika” – g‘ayritabiiy husn-u jamolga ega bo‘lgan sohibjamol ayol geteralar, yovuz sohira, ya‘ni feya ma‘nosida qo‘llangan.

Qadimiy eroniyning diniy qarashlari va mifologiyasini tadqiq etgan taniqli ingliz olimi G.Gyunterning yozishicha, “payrika” hosildorlik ma‘budasi sifatida avvalo his-tuyg‘uning inkarnatsiyasi, ya‘ni qayta tirilish g‘oyasi bilan bog‘liqdir. Shu bois ular siymosida ayol tanasining barcha go‘zalliklari-yu jozibasi mujassamlashgan.

A.Y.Bertelsning fikricha, “pari” so‘zining o‘zagi hind-yevropa bobo tilidagi “pery” leksemasi bo‘lib, bu so‘z zardushtiylikdan burungi mifologiyada go‘zallik va muhabbat ilohasining atoqli oti hisoblangan.

O‘zbek olimasi A.Mo‘minovanning yozishicha, qadimgi mifologiyada parilar odamlarni yovuz kuchlar asoratidan qutqaruvchi afsonaviy xaloskor sifatida tasvirlangan. Davrlar o‘tishi bilan pari

obrazi hayotiylik kasb eta boshlagan; ular oddiy odamlarga xos belgi va xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan go'zallik timsoliga aylangan [9. 34-37].

O'zbek xalq ertaklarida ham parilar obrazi ko'p uchraydi, deyarli hamma parilarning o'z ismlari keltirilgan. *Oqbilak pari* ("Kambag'al qiz"), *Badia pari* ("Mohistara"), *Guliqahqah pari*, parilarning boshlig'i *Yunus pari* ("Mislabu"), *Sanobar pari* ("Mohistara"), *Ilon pari*, *Qunduz pari* ("Baxtli kal") kabilar shular jumlasidandir.

Ertaklarda parilarning go'zallikda tengsiz, aqlli ekani tasvirlanadi va ularga erishish uchun qahramon turli qiyinchiliklarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi.

–*Olti oylik joyda. Eram degan mamlakat bor, podshosi odamzod, xotini parizod, shundan bo'lgan bitta qiz bor, otini Oqbilak pari deydilar. O'zi o'n besh yoshda, betiga yetmish qavat pardai zamburiy tortgan, bir qavatini ochib qo'ysa, husni jamoliga o'ttiz ikki kasaba chiroq yoqmasdan ish qiladi* ("Kambag'al qiz").

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek xalqlari ertaklarida gigantlar obrazi keng tarqalgan mifologik birliklardan sanaladi. Mifonimlar keng ma'noda har qanday to'qima atoqli otni, tor ma'noda to'qima obrazlarni anglatuvchi atoqli otlar guruhidir. Ertaklarda turli mifologik, ya'ni to'qima obrazlar keng qo'llanilishini kuzatamiz. Mifonimlar ertaklarga xos, boshqa janrlardan farqlovchi onomastic birliklardan sanaladi.

Ertaklarni sehsiz, sehri kuchlarsiz, mo'jizasiz, fantastik elementlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababdan ham spellonimlar – sehrgarlar, sehri qudratga ega bo'lgan mavjudotlar nomlari ham ertaklarga xos onomastic birliklardan sanaladi. Ertaklarda voqealar rivoji, qahramonlarning xususiyatlariga ko'ra teonimlardan ham keng qo'llaniladi. Ingliz ertaklarida Cormelian, Blunderbore, Thunderdell kabi gigant obrazlar keng tarqalgan. O'zbek ertaklarida ham devlar ismsiz shaklda ham, ismlari bilan kelgan ertaklarni ham uchratamiz. Ingliz va o'zbek ertaklarida spellonimlardan jodugarlar, parilar obrazlari keng uchraydi, parilar ismlari bilan keltirilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tilavov A. Epik ot obrazining tarixiy asoslari//Uzbekistan: Language and Culture 2022/1(2). –B.77-78.
2. Ўраева Д., Назарова Г. Инглиз ва ўзбек адабиётларидаги мифоним ва мифологизмларнинг қиёсий таҳлили//Филология масалалари. 2021. 1. –Б.8-9.
3. Мауткина И. Ю. Антропонимия британских сказок // Вестник Новгородского государственного университета. Серия «Гуманитарные науки». 2004. № 29. -с.65 (С. 65-69.)
4. Barnhart R. K. The Barnhart Dictionary of Etymology. N. Y.: H. W. Wilson, 1988. P.1240 (1284 p.)
5. Ощепкова В.В., Соловьева Н.В. Спеллонимы в системе мифонимов британской народной сказки// DOI: 10.18384/2310-712X-2018-2-73-87
6. Плахова О. Мифологическая ономастика в английской народной сказке//Вестник ТГУ. Выпуск 4 (60)б 2008. -с.229
7. О. А. Плахова. Образы английских великанов: на перекрестке мифологических традиций//<https://cyberleninka.ru/article/n/obrazy-angliyskih-velikanov-na-perekrestke-mifologicheskikh-traditsiy>
8. Ощепкова В.В., Соловьева Н. В. Динамика развития ономастического пространства британской и русской волшебной сказки// www.gramota.net/materials/2/2019/6/23.html
9. Jumanov E. Ertaklardagi dev, pari, ilon, yalmog'iz obrazlarining mifologik asosi//“Jahon adabiyoti” jurnali, 2022-yil 1-son
10. <https://en-academic.com/dic.nsf/enwiki/11579277>
11. <https://en.wikipedia.org/wiki/Blunderbore>